

**SHARQ MUTAFAKKIRLARNING TILSHUNOSLIKKA OID QARASHLAR:
ABU NASR FAROBIY VA ABU RAYHON BERUNIY**

*Andijon davlat chet tillari institute Ingliz tili filologiyasi,
o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti
sharq tillari (xitoy tili) yo'nalishi 102-guruh talabasi
Abdug'offorova Mohitobon Abduvohid qizi
Ilmiy maslahatchi: Zaynobiddinova I.M.*

Annotatsiya: Ushbu tezisda Abu Nasr Forobiy va Abu Rayhon Beruniyning tilshunoslikka oid qarashlari qisqacha yoritiladi. Forobiyning tilning kelib chiqishi va mantiq bilan bog'liqligi haqidagi fikrlari, Beruniyning talaffuz, fonetika va tarjima masalalariga doir kuzatuvlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot Sharq mutafakkirlarining lingvistika rivojiga qo'shgan hissasini umumiy tarzda ochib beradi.

Kalit so'zlar: Forobiy, Beruniy, tilshunoslik, fonetika, tarjima.

Annotation: This thesis briefly outlines the linguistic views of Abu Nasr Farabi and Abu Rayhon Beruni. It highlights Farabi's ideas on the origin of language and its relation to logic, as well as Beruni's observations on pronunciation, phonetics, and translation issues. The study provides a general overview of the contribution of Eastern scholars to the development of linguistics.

Keywords: Farabi, Beruni, linguistics, phonetics, translation.

Аннотация: В данной работе кратко рассматриваются лингвистические взгляды Абу Насра Фараби и Абу Райхона Беруни. Освещаются идеи Фараби о происхождении языка и его связи с логикой, а также наблюдения Беруни по вопросам произношения, фонетики и перевода. Исследование дает общее представление о вкладе восточных мыслителей в развитие лингвистики.

Ключевые слова: Фараби, Беруни, лингвистика, фонетика, перевод.

Sharq mutafakkirlarining tilshunoslikka oid qarashlari uzoq asrlardan beri ilmiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Jahon miqyosida Noam Chomsky, Roman Jakobson va Edward Sapir kabi olimlar tilning kelib chiqishi, mantiq va nutq tizimlarini o'rganishga katta hissa qo'shgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda Abdulla Qodiriy, Shavkat Xolmirzaev va Komil Yusupov kabi olimlar Sharq tilshunoslik merosini tadqiq qilgan va tahlil qilgan. Mazkur ishda Abu Nasr Forobiy va Abu Rayhon Beruniyning tilshunoslikka oid fikrlari va ularning zamonaviy lingvistika rivojidadagi ahamiyati o'rganiladi.

Abu Nasr Farobiyning lingvistik qarashlari

Markaziy Osiyoning yirik mutafakkiri Abu Nasr Farobiydir.

Uning to'la ismi-Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn

Tarxon ibn O‘zaliq al Farobiydir (873-950).

Farobiy u davrda mavjud bo‘lgan barcha ilmlardan bahramand bo‘lishga intildi va hatto bu yo‘lda ancha yutuqlarga erishish maqsadida u Bog‘dod, Damashq, Halab, Harron kabi arab sharqining juda ko‘p shaharlariga sayohat qildi, borgan shaharlarida olimlar bilan tanishar va ular bilan suhbatla- shib, ulardan bahramand bo‘lishga intilardi. Abu Nasr Farobiyni Sharqda Aristoteldan so‘ng ikkinchi Muallim (Muallimi Soniy) deb yuritganlar.

Zamonasining ana shunday yirik mutafakkiri bo‘lishiga qaramay, Abu Nasr Farobiy juda faqir yashagan. Hatto u yozishga qog‘oz, mutolaaga chiroq yog‘i ham topa olmagan. Mana shunday yashashiga qaramay, u ilm yo‘lidan cho‘chimadi, dadilroq, chuqurroq kirishib bordi.¹

Abu Nasr Farobiy juda ko‘p fanlar, juda ko‘p tillar va juda ko‘p hunardan xabardor edi.²

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy (973-1048) ning asarlari 152 ga boradi. Afsuski, bizgacha faqat 30 tachasigina yetib kelgan bo‘lib, ularni o‘rganish bu buyuk olimning astro-nomiya, matematika, fizika, mineralogiya, geodeziya, jug‘rofiya, falsafa, filologiya kabi fanlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi nihoyatda ulkan ekanini ko‘rsatadi. Biroq Beruniyning shu kungacha fanga ma‘lum bo‘lgan asarlarining hammasi ham nashr etilgan va to‘la o‘rganilgan deb aytolmaymiz, ularning ayrimlari hamon qo‘lyozmaligicha qolib kelmoqda.

Shu sababli, ensiklopedist olim ijodining ayrim tomonlari, jumladan tilshunoslik qarashlari, yetarli darajada yoritilgan va munosib baholanmagan.²⁵Beruniyning “Tahqiq mo li-l-hind min maqula maqbula

fi-l-aql av marzula” (“Hindlarning aqlga sig‘adigan Yoki sig‘amaydigan ta’limotlarining haqiqatini aniqlash” - “Hindiston”), “Al-Qonun al-Mas’udiy” (“Qonuni Mas’udiy”) “Giodeziya”, “Mineralogiya”, “Kitob -ul-Saydana fi-t-tibb” adabiyot, tilshunoslik kabi sohalarga oid qimmatli ma’lumotlar bor.

¹ O‘rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: Oltin kitob, 2022.

² Нурмонов А. Танланган асарлар. — Тошкент: Академнашр, 2012.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida hind tili haqida ham qimmatli fikrlar beradi. Uningcha, “hindlar bilan oramizning uzilib turishiga birmuncha sabablar bor. Ulardan biri lug‘at tilida o‘zgalik bor. Undan keyin hindlarning tillari oddiy xalq o‘rtasida ishlatiladigan va fozillar sarf (morfologiya), ishtiqoq (etimologiya), nahv (sintaksis) va balog‘atning nozik qoidalariga asoslangan tilga bo‘lingan».³

Beruniy sanskrit tilining ancha qiyinligi, undan foydalanib yozilgan asarning ko‘chiruvchisi juda ehtiyotkor bo‘lishi zarurligi, u tildagi xususiyatlarga e‘tibor Berishi kerakligini uqtiradi. Hindlarning tillari, deydi Beruniy, arab va fors harflariga tegishli tovushlarga to‘g‘ri kelmaydi va o‘xshamaydi, hatto, tilimiz u tovushlarni o‘z joyidan chiqarib aytolmaydi; quloqlarimiz ularning nutq tovushlarini ajratib eshita olmaydi. Nutq tovushlarini ifodalovchi harflarni hind kabi yoza olmaymiz. Natijada ularning lug‘aviy birliklarini xatimiz bilan ifodalash qiyinlashadi.

Ko‘pincha hindlarning og‘zidan bir ismni yaxshilab talaffuz qilishni o‘rganib olamiz, keyin shu ismni ularga qaytarib aytsak, anglamaydilar yoki zo‘rga anglaydilar. Chunki hindlarning tillarida 2 va 3 undosh harf ketma- ket keladi va ularni talaffuz qilish biz uchun qiyin.

Beruniyning ko‘p tillarni bilish qobiliyatini “Hindiston” asari bilan tanishgach guvoh bo‘lamiz. U asarda keltirgan ma‘lumotlarga qaraganda, ona tilidan - xorazmiy tilidan va turk, fors, arab tillaridan tashqari yunon va suryoniy tillarini mukammal bilgan. Natijada u o‘z kitobida 20 dan ortiq yunon tilidagi asarlarga havola beradi va sitata keltiradi.

Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida til, yozuvning ahamiyati, sinonimiya hodisasi, hind atamalarini arab tilida Berish usullari haqida atroflicha fikr beradi.

Xususan, olimning bolaligida uning yurtiga bir grek ko‘chib keladi. Abu Rayhon unga don, urug‘, meva, o‘simlik va boshqa

³ .Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. — Тошкент, 2013.

narsalar ko‘tarib kelib, bular grek tilida qanday nomlanishini so‘raganligi va grekcha nomlarini daftariga yozib olganligini bayon qiladi.

“Saydana”ning qimmatli tomoni shundaki, unda dorivor moddalarning bir necha tillardagi nomlari keltirilgan. Hatto bir o‘simlik yoki modda bir tilning turli shevalarida turlicha nomlanishi, yoki, aksincha, bir nom turli shevalarda turli - o‘simlik nomini bildirishi mumkin. Bu esa, dorivor moddalardan amalda foydalanishni ancha qiyinlashtiradi. Ana shuni e‘tiborga olib, alohida foydalanish oson bo‘lishi uchun modda nomining dialektal variantlarini ham ko‘rsatadi. Beruniy narsa nomini bilish insonning ma‘naviy boyligini emas, balki katta moddiy boyligi bo‘lishi mumkinligini, shuning uchun ham til o‘rganishning tengsiz amaliy ahamiyati mavjudligini ta’kidlaydi.

Fikrning isboti sifatida asarning V bobida shunday rivoyat keltiradi: “Xorazm amirlaridan biri kasal bo‘lib uzoq qiynaladi. Nihoyat nishopurlik bir tabib uning kasaliga nima davo bo‘lishi mumkinligi haqida ryetsyept yozib yuboradi. Bu retseptni mahalliy dorishunoslarga ko‘rsatadilar. Ular tavsiya etilgan bir dorivor o‘simlikni hech aniqlay olmaydilar. Shunda bir kishi ular qidirayotgan dorivor o‘simlikni topib berishi mumkinligini, lekin narxi besh yuz dirham sof kumushdan kam bo‘lmasligini aytadi. Amir mulozimlari rozi bo‘lishadi. U kishi mulozimlarga o‘simlik tomirini tutqazadi. Bu o‘simlik tomiri har kuni o‘zlari ko‘rib yuradigan oddiy bir chayon o‘tining tomiri edi. Mulozimlarning jahli chiqib, o‘n besh dirhamga ham olmaydigan shu tomirini besh yuz dirhamga berasanmi? -deb o‘shqiribdilar. Shunda giyohfurush javob beradi: “Dorivor moddalar nomini bilish byebaho boylikdir. Sizlar shu o‘simlik nomini bilmaganliklaringiz tufayli kasalning qanchalar qiynatishiga sababchi bo‘ldilaringiz, tilla bahosiga bo‘lsa ham sotib olishga rozi edilaringiz”.⁴

⁴ Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. — Тошкент, 2013.

Mazkur tezisda Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy va Abu Rayhon Beruniyning tilshunoslikka oid qarashlari o'rganildi. Ularning fikrlari tilning kelib chiqishi, mantiq bilan bog'liqligi, fonetika va tarjima masalalarini yoritadi. Tadqiqot natijalari Sharq ilmiy merosining lingvistika rivojiga katta hissa qo'shganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularning qarashlari zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari uchun ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. — Тошкент: Академнашр, 2012.
2. .Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. — Тошкент, 2013.
- 3.О'rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: Oltin kitob, 2022.
- 4.Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. — Тошкент, 2013.